



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No1
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 59 sahifa.
2026-yil yanvar*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT	10
Urinboyev Bexruz Zoir o'g'li, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI	15
Jabborov Muhammad Sanjarovich, Djurayeva Dilnoza Davron qizi, Song Jichung	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH OMILLARI VA MAKROIQTISODIY TA'SIRI.....	21
Xoliqulova Ra'no Sherali qizi, Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich	
КУЛЬТУРНЫЙ ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	25
Ахтамов Огабек Улугбек угли, Фахритдинов Амриддин Фазлитдинович, Саидмуродов Жонибек Жахонгирович, Саттарова Зухра Илхомовна	
DAVLATNING YASHIL INVESTITSİYALAR ORQALI IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI.....	31
Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI O'SISHIDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING STRATEGIK O'RNI: PREZIDENT MUROJAATNOMASI ASOSIDA ILMIY TAHLIL	35
Ma'rupov Zahiriddin Feruzovich, Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDAGI BIZNES-SUBYEKTLARINI BAHOLASH: ESG MEZONLARI ASOSIDA BARQARORLIK INDEKSINI ISHLAB CHIQISH VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	39
Po'latov Orzubek Fazliddin o'g'li, Haqnazarova Yulduz Juraqulovna	
ФИНАНСОВЫЕ ИНСТИТУТЫ КАК ФАКТОР МОДЕРНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	43
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовевна	
AKSIZ SOLIG'I TUSHUMLARINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET DAROMADLARIDAGI ULUSHI: 2020-2024-YILLAR BO'YICHA IQTISODIY TAHLILI	49
Karimov Diyorbek, Abdurashidov Abdusamad	
O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARINING SOLIQ TUSHUMLARI VA FUQAROLARNING SOLIQ INTIZOMIGA TA'SIRI	55
Maxkamova Dildora Shavkat qizi, Ergashev Shavkat Maxkamovich	



O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARINING SOLIQ TUSHUMLARI VA FUQAROLARNING SOLIQ INTIZOMIGA TA'SIRI

Maxkamova Dildora Shavkat qizi

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti
2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar:

Ergashev Shavkat Maxkamovich

Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya
bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya
va sport universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini raqamlashtirish jarayonlarining soliq tushumlari hajmiga hamda soliq to'lovchilarning soliq intizomiga ta'siri tahlil qilinadi. So'nggi yillarda mamlakatda elektron soliq xizmatlari, onlayn nazorat-kassa mashinalari hamda soliq ma'murchiligini avtomatlashtirish kabi mexanizmlar joriy etildi. 2018–2024-yillar oralig'idagi rasmiy statistik ma'lumotlar asosida o'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, soliq tizimidagi raqamlashtirish jarayonlari soliq tushumlarining ortishiga hamda yashirin iqtisodiyot ulushining qisqarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Mazkur maqolada soliq tizimini raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham keltiriladi.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, soliq ma'murchiligi, soliq tizimi, raqamlashtirish, fiskal samaradorlik.

Abstract: This article analyzes the impact of the digitalization of the tax system of the Republic of Uzbekistan on the volume of tax revenues and taxpayers' tax compliance. In recent years, a number of mechanisms have been introduced in the country, including electronic tax services, online cash registers, and the automation of tax administration. The analysis based on official statistical data for the period 2018–2024 shows that the digitalization of the tax system has contributed to an increase in tax revenues and a reduction in the share of the shadow economy. The article also provides practical recommendations for accelerating the digital transformation of the tax system.

Key words: tax revenues, tax administration, tax system, digitalization, fiscal efficiency.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние процессов цифровизации налоговой системы Республики Узбекистан на объем налоговых поступлений и налоговую дисциплину налогоплательщиков. В последние годы в стране были внедрены такие механизмы, как электронные налоговые услуги, онлайн контрольно-кассовые машины, а также автоматизация налогового администрирования. Результаты анализа, основанного на официальных статистических данных за 2018–2024 годы, показывают, что цифровизация налоговой системы способствовала росту налоговых поступлений и сокращению доли теневой экономики. В статье также представлены практические рекомендации по ускорению цифровой трансформации налоговой системы.

Ключевые слова: налоговые поступления, налоговое администрирование, налоговая система, цифровизация, фискальная эффективность.

KIRISH

Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda soliq tizimi asosiy moliyaviy mexanizm hisoblanadi. Shu sababli soliq tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish har bir davlat uchun strategik ahamiyat kasb etadi. An'anaviy soliq tizimi yuqori tranzaksiya xarajatlari, ma'lumotlarning yopiqligi hamda inson omilining ustunligi bilan tavsiflanadi. Mazkur holat soliqlardan bo'yin tovlash va yashirin iqtisodiyot hajmining kengayishiga, shuningdek, shaffoflikning pasayishiga sabab bo'ladi. Soliq tizimini raqamlashtirish esa ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.



O'zbekiston Respublikasida 2017-yildan boshlab "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat davlat boshqaruvi tizimini raqamlashtirishda, balki davlat soliq tizimida ham keng joriy etilmoqda. Xususan, onlayn nazorat-kassa mashinalari, elektron soliq hisobotlari hamda yagona axborot platformalarining amaliyotga tatbiq etilishi soliq tizimining shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, soliq tizimi faqat majburiy nazorat mexanizmlari bilan cheklanib qolmasdan, soliq to'lovchilarda ixtiyoriy soliq intizomini shakllantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamlashtirilgan tizim aynan ushbu ixtiyoriy intizomni mustahkamlash orqali soliq tushumlarini oshirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda soliq tizimini raqamlashtirish masalasi keng o'rganilgan. Jahon banki hamda boshqa xalqaro iqtisodiy markazlar tadqiqotlariga ko'ra, raqamli soliq tizimi soliq tushumlarini o'rtacha 10–15% ga oshirishi mumkin. OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) mamlakatlari tajribasiga ko'ra esa elektron soliq xizmatlari soliq ma'murchiligi xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi.

Britaniyalik iqtisodchilar M.G. Allingham (xatar va qaror qabul qilish nazariyasi bo'yicha ishlari bilan mashhur) hamda A. Sandmo (jamoat moliyasi va soliq iqtisodiyoti sohasidagi tadqiqotlari bilan tanilgan) tomonidan 1972-yilda ishlab chiqilgan soliq intizomi modeli soliq to'lovchining xulq-atvori nazorat ehtimoli va jazolarning qo'llanilish darajasiga bog'liqligini ta'kidlaydi. So'nggi tadqiqotlar esa raqamlashtirish ushbu ehtimollikni oshirish orqali soliqdan bo'yin tovlash darajasini sezilarli darajada pasaytirishini ko'rsatmoqda. Biroq, O'zbekiston sharoitida ushbu jarayonlarning empirik bahosi yetarli darajada o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biz taklif qilayotgan uslub miqdoriy va sifat tahlilini o'z ichiga oladi. Miqdoriy tahlil doirasida soliq tushumlari, elektron xizmatlardan foydalanish hamda soliq to'lovchilar soni kabi ko'rsatkichlar statistik usullar yordamida baholanadi. Sifat tahlili esa normativ-huquqiy bazani tahlil qilishga asoslanadi.

Tahlil uzoq muddatli yondashuv asosida 2018–2024-yillar oralig'idagi ma'lumotlarni qamrab oladi. Ushbu davrning tanlanishiga asosiy sabab, aynan shu yillarda O'zbekistonda soliq tizimini raqamlashtirish bo'yicha texnologik islohotlarning faol amalga oshirilganligidir.

Tadqiqot bosqichlari quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- Raqamlashtirishdan oldingi davr (2018–2019-yillar);
- Raqamlashtirishning faol joriy etilish bosqichi (2020–2022-yillar);
- Raqamlashtirishning konsolidatsiya bosqichi (2023–2024-yillar).

Qo'llaniladigan asosiy o'zgaruvchilar sifatida soliq tushumlari hajmi, QQS ulushi hamda soliq qarzдорligi darajasi bog'liq o'zgaruvchilar sifatida tanlandi. Mustaqil o'zgaruvchilar sifatida esa elektron soliq xizmatlaridan foydalanish ko'rsatkichlari olindi.

Tahlil jarayonida deskriptiv statistika, before-after tahlili, trend tahlili hamda taqqoslash tahlili usullaridan foydalanildi. Tadqiqot rasmiy ochiq ma'lumotlar asosida amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamlashtirish jarayonlarining samaradorligini baholash maqsadida soliq tushumlarining yillar bo'yicha o'zgarish dinamikasi tahlil qilindi.

Tahlil natijalariga ko'ra, 2021-yildan boshlab soliq tushumlari keskin o'sish tendensiyasini namoyon etib, 2024-yilga kelib 210,0 trln so'mga yetgan. Mazkur davr elektron hisob-fakturalar hamda soliq monitoringi tizimining to'liq joriy etilishi bosqichi bilan mos keladi (1-jadval).

1-jadval. 2018–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida soliq tushumlari dinamikasi

№	Yil	Soliq tushumlari (trln. so'm)	Yillik o'sish (%)
1	2018	79,1	-
2	2019	92,6	17,1
3	2020	103,8	12,1
5	2021	134,7	29,8
6	2022	162,4	20,6
6	2023	189,5	16,7
7	2024	210,0	10,8



Raqamlashtirish jarayonlari bilvosita soliqlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini kuzatish mumkin.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, raqamlashtirish islohotlari soliq tushumlariga, xususan QQS (qo'shilgan qiymat solig'i) tushumlarining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur holat aylanmalar ustidan nazoratning kuchaygani hamda soliq ma'murchiligi jarayonlarining yanada shaffoflashgani bilan izohlanadi (2-jadval).

2-jadval. Soliq tushumlari tarkibi (foizda)

№	Soliq turlari	2018-yil	2020-yil	2024-yil
1	QQS	34,5	40,8	46,2
2	Foyda solig'i	21,3	18,9	17,4
3	JSHDS	15,8	14,2	13,6
4	Aksiz solig'i	12,6	11,4	10,2
5	Boshqa soliqlar	15,8	14,7	12,6

2024-yilga kelib soliq hisobotlarining deyarli barchasi elektron shaklga o'tkazildi. Natijada mazkur yilga kelib soliq to'lovchilar soni ham oshdi. Raqamli monitoring va onlayn ro'yxatdan o'tish mexanizmlarining joriy etilishi yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT) sonining keskin ko'payishiga xizmat qildi. Xususan, ushbu jarayon ixtiyoriy soliq intizomini mustahkamlab, soliq qarzdorligini ham sezilarli darajada kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Olingan natijalar raqamlashtirilgan soliq tizimi bilvosita va bevosita soliq tushumlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Jumladan, QQS tushumlarining ulushi 2018-yildagi 34,5% dan 2024-yilda 46,2% gacha oshgani elektron hisob-fakturalar hamda onlayn tizimlar orqali savdo aylanmalari ustidan to'liq nazorat o'rnatilgani bilan izohlanadi. Mazkur holat xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan fiskal shaffoflik konsepsiyasi bilan mos keladi.

Michael G. Allingham va Agnar Sandmo modeli doirasida qaralganda, soliq to'lovchilar soliq majburiyatlarini bajarish yoki bajarmaslik bo'yicha qarorni aniqlanish ehtimoli va jazolarning qo'llanish darajasiga qarab qabul qiladi. O'zbekiston miqyosida soliq tizimidagi raqamlashtirish soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarini aniqlash ehtimolini sezilarli darajada oshirdi. Shu bois statistik tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish darajasi 2018-yildagi 82% dan 2024-yilda 94% gacha yetgan.

Qo'shimcha ijobiy natijalar sifatida elektron soliq xizmatlarining qulayligi, soliq hisobotlarining soddalashtirish hamda soliq to'lovchilarda davlat institutlariga nisbatan ishonchning mustahkamlangani qayd etiladi. Bu esa soliq intizomining ixtiyoriy shakllanishiga xizmat qildi.

OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) mamlakatlarida elektron soliq xizmatlari soliq ma'murchiligi xarajatlarini o'rtacha 20–30% ga kamaytirgani kuzatiladi. O'zbekistonda esa elektron hisobotlarning ulushi 99% ga yetgani ma'muriy xarajatlarning qisqarishi uchun zamin yaratmoqda. Biroq texnologik infratuzilma va raqamli savodxonlik darajasi jihatidan rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlaridan hali ham pastroq. Shu sababli O'zbekiston tajribasini "tez rivojlanayotgan raqamli soliq modeli" sifatida baholash mumkin.

Shunga qaramay, raqamlashtirish jarayonlari bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Jumladan:

- kichik biznes subyektlari uchun texnik va moliyaviy yuklamaning ortishi;
- hududlar o'rtasida raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanganligi;
- ma'lumotlar xavfsizligi va kiberxavfsizlik bilan bog'liq xavflarning kuchayishi.

Agar qayd etilgan muammolar tizimli ravishda bartaraf etilmasa, raqamlashtirish jarayonlarining samaradorligi uzoq muddatda pasayishi mumkin. Tadqiqot natijalari soliq siyosatini shakllantirishda raqamlashtirishni nafaqat texnologik jarayon, balki institutsional islohot sifatida ko'rib chiqish zarurligini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston soliq tizimida raqamlashtirish jarayonlari nafaqat fiskal samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi, balki ijtimoiy, institutsional hamda huquqiy jihatlarni yanada mustahkamlash orqali mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy poydevoriga aylanishi mumkin.

Taklif sifatida, soliq tizimida raqamlashtirish samaradorligini yanada oshirish maqsadida elektron soliq xizmatlaridan foydalanish bo'yicha soliq to'lovchilar (ayniqsa kichik biznes va YTTlar) uchun raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bepul onlayn o'quv platformalari va konsultativ xizmatlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu orqali soliq to'lovchilarning tizimga moslashuvi tezlashib, ixtiyoriy soliq intizomi mustahkamlanadi hamda ma'muriy xatoliklar kamayadi.

Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi risk-tahlil tizimlarini joriy etish hamda soliq to'lovchilar bilan muloqot va xizmat ko'rsatish sifatini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Jahon banki. Doing Business 2023: Uzbekistan Country Profile. – 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. O'zbekiston Respublikasi budjeti va soliq tushumlari statistikasi. – Toshkent: Moliya vazirligi nashriyoti, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. Yashirin iqtisodiyot va soliq tushumlarini oshirish yo'llari. – Toshkent: DSQ matbuot xizmati, 2022.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari (2018–2024). – 2024.
5. OECD. Tax Administration 2023: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies. – Paris: OECD Publishing, 2023.
6. International Monetary Fund (IMF). Uzbekistan: Selected Issues Paper (Digitalization and Public Finance). – Washington, DC: IMF, 2022.
7. World Bank. Digital Government for Development: Tax Administration and Digital Transformation. – Washington, DC: World Bank, 2021.
8. Allingham, M. G., & Sandmo, A. Income tax evasion: A theoretical analysis // Journal of Public Economics. – 1972. – Vol. 1(3–4). – P. 323–338.
9. OECD. Technology Tools to Tackle Tax Evasion and Tax Fraud. – Paris: OECD Publishing, 2021.
10. United Nations (UN). E-Government Survey 2022: The Future of Digital Government. – New York: United Nations, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

1-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
